



O'ZBEKISTONNING FOYDALI QAZILMALARI

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Alimardonova Mo'tabar Xolmo'minovna

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Ermatova Nigina Farxod qizi

Gmail: @niginaermatova36gmail.com

Telefon: +998881794546

Annotasiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston hududidagi qazilma boyliklar, ularning turlari, qazilmalardan oqilona foydalanish, qazilma boyliklarni tejash chora-tadbirlarini ko'rish xususida so'z yuritiladi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy boyliklarimizni tushuntirishda ekskursiya darslarini tashkil qilish haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *tabiiy boyliklar, qazilmalar, iqlim resurslari, suv resurslari, kosmik resurslar, tuproq resurslari, o'simlik resurslari va boshqalar.*

MINERAL RESOURCES OF UZBEKISTAN

Annotation: *This article discusses the mineral resources of Uzbekistan, their types, the rational use of minerals, and measures to conserve them. Additionally, it provides information on organizing excursion lessons to explain our natural resources to primary school students.*

Keywords: *natural resources, minerals, climate resources, water resources, space resources, soil resources, plant resources, and others.*

ПОЛЕЗНЫЕ ИСКОПАЕМЫЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются полезные ископаемые Узбекистана, их виды, рациональное использование недр и меры по их сохранению. Кроме того, представлена информация об организации*



экскурсионных занятий для объяснения нашим младшим школьникам природных ресурсов.

Ключевые слова: природные богатства, полезные ископаемые, климатические ресурсы, водные ресурсы, космические ресурсы, почвенные ресурсы, растительные ресурсы и другие.

Rivojlanib borayotgan mustaqil O‘zbekistonimiz bir qancha moddiy hamda ma’naviy boyliklari bilan dunyoga mashhurdir. Shu jumladan, foydali qazilma boyliklarimiz ko‘pligi va sifati bilan dunyoning badavlat mamlakatlari safidan o‘rin egallaymiz. Ta’kidlab o‘tish lozimki, O‘zbekiston hududida 1895 ta foydali qazilma konlari aniqlangan. Ushbu konlarning 40% dan ko‘proq qismi mustaqillik yillarida kashf etilgandir. Va bu shuni anglatadiki, mustaqillik yillarida geologik ishlar samaradorligi anchagina o‘sib o‘z natijasini berib kelmoqda. Qazilma konlari, qazilma boyliklari haqida suhbatlashishdan avval tabiiy resurs tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak.

Tabiiy resurslar deb yashash uchun zarur bo‘lgan tabiiy jismlar va energiya manbalariga aytiladi. Tabiiy resurslarga suv, havo, tuproq, foydali rudalar, shamol, o‘simliklar, hayvonlar, neft, uran, ko‘mir, oltin, kumush kabilar kiradi. Bularning hammasi Yer sayyorasida mavjud bo‘lgan tabiiy resurslar hisoblanadi.

Tabiiy resurslar bir necha turlarga bo‘linadi:

- a) qazilma boyliklari
- b) iqlim resurslari
- c) suv va havo resurslari
- d) tuproq resurslari
- e) o‘simlik resurslari
- f) atom resurslari
- g) biosfera resurslari
- h) kosmik resurslar
- I) fauna resurslari

Tabiiy resurslar qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslarga bo‘linadi.



Ana endi tabiiy resurslar tarkibiga kiruvchi qazilma boyliklari haqida soʻz yuritsak. Qazilma boyliklar qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Ulardan foydalanib borish natijasida ularning miqdori va sifati kamayib boradi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklardan unumli foydalanish va ularni asrash quyidagicha boʻlishi lozim: miqdori va sifatiga eʼtibor berish, kompleks ravishda toʻgʻri, tejab oʻrnida oqilona foydalanish, ularni qazib olish, tashish, qayta ishlash, ishlatishda isrofgarchilikka yoʻl koʻymaslik, chiqindini kamroq chiqarish choralari koʻrish, yangi konlar kashf qilish va ularning oʻrnini bosuvchi yangi sunʼiy manbalar topish va boshqalar muhim hisoblanadi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalansak,, ular kishilik jamiyati ehtiyojlarini uzoq muddatlarga toʻlaqonli taʼminlay oladi. Fan va texnika taraqqiyotining natijasida baʼzi foydali qazilmalar tugaguncha ularning oʻrnini bosadigan yangi resurslar yaratish ham mumkin.

Oʻzbekistonda aniqlangan foydali qazilma boyliklarinu bir necha guruhlarga tasniflaymiz:

- 1)Uglevodorodlar: 235 ta kon, xususan neft va tabiiy gaz manbalari mavjud;
- 2)Metall rudalari: 151 ta kon oltin, kumush, qoʻrgʻoshin,mis va rux kabilarni oʻz ichiga oladi;
- 3)Koʻmir: 7 ta kon va ularda toshkoʻmir va qoʻngʻir koʻmir kabi turlari maʼlum;
- 4)Togʻ-kon xomashyosi: 55 ta kon mavjud boʻlib, ularda sanoat uchun zaruriy minerallarni uchratishimiz mumkin;
- 5)Togʻ-kimyo xomashyosi: 34 ta kon mavjud va ular kimyo sanoati uchun manba hisoblanadi;
- 6)Yarim qimmatbaho toshlar: 30 ta kon va ularda zargarlik buyumlari uchun kerak boʻladigan xomashyolar mavjud;
- 7)Qurilish materiallari: 764 ta kon bor va ularda ohaktosh, marmar, granit kabilar qazib olinadi va qayta ishlanadi;
- 8)Yer osti mineral suvlari: 619 ta kon; sogʻliqni saqlash va dam olish uchun sanatoriyalari uchun muhim manbalar bor.



Shuningdek, mamlakatimizda 43 turdagi noruda qazilma boyliklarining 2085 ta konlari mavjud bo'lib, ularning 85% dan ortiq qismi sanoatda o'zlashtirilib kelinmoqda.

O'zbekiston foydali qazilmalari mamlakatimiz sanoat rivoji va iqtisodiy barqarorligida muhim omillardan biridir. Ularni samarali o'zlashtirish va ulardan oqilona foydalanish kelajak avlod uchun barqaror rivojlanish poydevorini yaratadi. Ammo bugungi kunda tabiiy resurslar bilan bog'liq bir qancha muammolar ham mavjud.

Inson tabiiy resurslardan foydalanishda iqtisodiy foyda olishni ko'zda tutadi. Lekin tabiiy sharoitning o'zgarishi insonlarning jismoniy-psixik holatiga ta'sir etishini hisobga olmaydi. Inson tabiatning har bir bo'lagi, har bir komponenti (suv, havo, tuproq, o'simlik, hayvon va minerallar) bir-biri bilan shu qadar chambarchas bog'langanki, uning biron bir qismiga noto'g'ri ta'sir etish oqibatida ma'lum vaqt o'tishi bilan tabiatning boshqa komponentlari holatini ham o'zgartirib yuborishini bilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston har tomonlama, har jihatdan boy davlat. Faqat davlatimiz boyligini saqlab qolish, asrash va ko'p yillarga yetkazish bizga bog'liq. Tabiiy resurslardan foydalanish sifatimiz qanchalik yaxshi bo'lsa, yashash sharoitimiz ham yaxshi bo'ladi. Negaki inson foydalanayotgan manbalarga tiklanmaydigan resurslar ham kiradi, tiklanadigan resurslar ham kiradi. Tabiat in'om etgan resurslardan oqilona foydalansak ushbu manbalar insoniyatga uzoq muddat xizmat qiladi. Aksincha resurslardan foydalanishda isrofgarchilikka, palapartishlikka yo'l qo'ysak bu holat nafaqat tabiat uchun, balki biz uchun ham katta xavfdir. Shunday ekan, tabiatni asrash hayotimizdagi yengillik, to'kinlik qo'limizda ekan, keyingi avlod uchun ham ona tabiatni asramog'imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasi". – Toshkent, 2000.
2. Ahrorov F.B. "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". – Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti.



3. Nabiyeu E., Qayumov A. "O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati". – Toshkent: Universitet, 2000.
4. Parmanov A.E., Maksumova M.A. "Ishlab chiqarishni tashkil etish". – Toshkent, 2012.
5. Soliyev A.S., Ahmedov E., Maxamadaliyev R.Y. va boshqalar. "Mintaqaviy iqtisodiyot". O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2003.
6. Ro'ziyev A., Abirqulov Q. "O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi". – Toshkent: Sharq, 2001.